

**O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligi
Andijon davlat tibbiyot instituti
Axborot-resurs markazi**

**ANDIJON DAVLAT TIBBIYOT INSTITUTI
AXBOROT – RESURS MARKAZINING 2023- YIL
ISH FAOLIYATI HAQIDA
H I S O B O T I**

Andijon - 2023

Axborot - resurs markazi 2023 - yil uchun ish faoliyatining asosiy yo'nalishlari

Institutning axborot-resurs markazida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Davlat Oliy ta'lim muassasalarining akademik va tashkiliy boshqaruv mustaqilligini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" 2021 yil 24 –dekabrdagi RQ-60-son qarori, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2022 yil 7 yanvarda (№ 07/1-322, 07.01.2022 y.) tasdiqlangan qaror ijrosini amalga oshirish grafigining 5-bandida ko'rsatilgan vazifalarni izchillik bilan davom ettirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 13 sentabrdagi "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi PQ-3271-sonli qarori, 2019 yil 7 iyundagi "O'zbekiston Respublikasi aholisiga axborot-kutubxona xizmati ko'rsatishni yanada takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-4354-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 14 dekabrdagi "2020-2025 yillarda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturini tasdiqlash to'g'risida" 781-sonli qarori.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2022 - yil 30-sentabrdagi "Axborot-kutubxona muassasalarida axborot-kutubxona resurslarini xisobga olish, fondlarni saqlash va xisobdan chiqarish sohasidagi ayrim normativ –xuruqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida" gi 552-sonli qaroriga muvofiq oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida qabul qilingan axborot-kutubxona faoliyatiga oid normativ-huruqiy hujjatlarga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish maqsadida institut axborot-resurs markazining 2022 yil 11-noyabrdagi 371-sonli buyrug'i bo'yicha ishlar amalga oshirilmogda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 28-noyabrdagi "Yoshlar uchun ming kitob" loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi ishlar amalga oshirilmogda.

Axborot — resurs markazining 2023 yil ish faoliyatining asosiy yo'nalishlari bo'yicha bosh raqamli ko'rsatkichlar.

№	Ko'rsatkichlar	Bajarilishi jami
1	Yangi olingan adabiyotlar (nomda) (nuxxada)	259 4250
2	Chiqarilgan adabiyotlar (nomda) (nuxxada)	67 6632
3	Kitob fondi (nomda) (nuxxada)	27904 216921
4	Kitobxonlar soni	16179
6	Kitob berilishi	722891
7	Qatnov soni	322643
8	O'tkazilgan ommaviy tadbirlar soni	147

Axborot – resurs markazi faoliyati b'uyicha yuqori tashkilotlar, vazirliklar tomonidan yuborilgan 152 ta buyruqlar, modemnomalar noyabr oyidan boshlab, uz vaqtida "EDO.IJRO. UZ" ijro intizomi dasturi orqali s'uralgan ma'lumotlariga javoblar berildi.

Axborot-resurs markazida 5 ta b'ulim faoliyat olib boradi. Unda 7 ta uquv zali va elektron axborot resurslar b'ulimi tashkil etilgan b'ulib, foydalanuvchilarga xizmat k'ursatilmogda.

Axborot- resurs markazi muntazam ravishda uquv darслиklar, uquv k'ullanmalar, ilmiy va xoriжий адабиётларни харид қилиш, уларнинг электрон шакллари яратиш, китобхонларга хорижий тажрибалардан фойдаланишни татбиқ этиш ва мутахассислар билан мунтазам хамкорлик ишларини оlib бориш мақсадида "Калеон-Инфо", Олий ва ўрта махсус, касб-хунар таълимини ривожлантириш маркази, Соғлиқни сақлаш вазирлиги тиббий таълимни ривожлантириш маркази, Миллий кутубхона ва китоб савдо д'юкнлари орқали махсус шартномалар асосида ахборот ресурс маркази жамғарма фонди адабиётлар билан т'улдирилмоқда

Ўзбекистон Республикаси Президентининг хуудларга ташрифи якунлари б'uyicha берилган топшириқлар ижросини бажариш, хусусан Олий таълим муассаларида **Янги Ўзбекистон-ёшлар зиё маскани ахборот-кутубхоналарини** ташкил қилиш, уларни мактаблар

учун ҳам хизмат қилишини таъминлаш юзасидан ҳамда Ўзбекистон Республикаси Олий таълим, фан ва инновациялар вазирлигининг 2023- йил 6- март кунидаги 2/10-13 сонли “Мақтаб - маънавийат ва маърифат ўчоғи” концепсияси доирасида умумтаълим мактаблари ўқувчи ёшларининг маънавий-маърифий дунёқарашини кенгайтириш, китобхонлик маданиятини ошириш ва касбга йўналтириш мақсадида Андижон вилоятидаги мактаб kutubxonalar ishini o‘rganish bo‘yicha axborot resurs markazi xodimlari tomonidan 4 kunlik reytd tashkil qilindi. Jumladan, Andijon tumanidagi turli xududlarda joylashgan 4-22-24-38-44-46-50-sonli umumta‘lim maktablari hamda Izboskan tumanidagi 33-47-50-sonli maktab kutubxonalari ish faoliyati va o‘quvchilarga yaratilgan shart- sharoitlar o‘rganilib uslubiy yordamlar berildi.

2023- yil davomida **259 nomda, 4250 nusxada narxi 827.986.530-42t** yangi adabiyotlar olindi.

Shundan:

Darslik –19 nomda 2700 nusxada

O‘quv qo‘llanmalar - 117 nomda 960 nusxa

Ilmiy adabiyotlar – 1nomda 10 nusxa

Badiiy adabiyotlar -100 nomda 100 nusxa

Siyosiy adabiyotlar -18 nomda 374 nusxa

Boshqa adabiyotlar – 4 nomda 106 nusxa

Tillar:

Rus tili – 13 nomda 1155 nusxa

Kiril tili -17 nomda 1460 nusxa

Lotin tili -131 nomda 1147 nusxa

Xorijiy tili-98 nomda 488 nusxa

ARM fondi : 27904 nomda 216921 nusxa tashkil etadi narxi - 2.821.708.494-52t

Shundan:

Darslik - 662 nomda 78111 nusxa

O‘quv qo‘llanmalar - 980 nomda 37242 nusxa

Ilmiy adabiyotlar – 16043 nomda 51005 nusxa

Badiiy adabiyotlar - 3242 nomda 22860 nusxa

Siyosiy adabiyotlar - 4553 nomda 13846 nusxa

Boshqa adabiyotlar – 2424 nomda 13857 nusxa

Tillar:

Rus tili – 21656 nomda 131241 nusxa

Kiril tili -5218 nomda 60303 nusxa

Lotin tili -743 nomda 23167 nusxa

Xorijiy tili-287 nomda 2210 nusxa

Shuningdek, 256 dona avtoreferatlar olindi va jami avtoreferatlar soni 3916 donani tashkil etadi. 343 dona magistr loyixalari qabul qilindi. ARM fondidagi magistr loyixalarining jami soni 1517 donadan iboratdir.

Axborot-resurs markaziga professor-o‘qituvchilar tomonidan 683 dona o‘quv adabiyotlar qabul qilindi.

Institut obunasi bo‘yicha 2023 yilda umumiy narxi 101 mill.196 ming. 044 sum, 29 nomda 104 nusxa gazeta va 33 nomda 48 nusxa jurnallarga obuna tashkil etildi va bo‘lim, kafedralarga tarqatib borildi va tarkatib borilmoqda.“**Yangi O‘zbekiston** ” gazetasiga iyul oyidan 32 nusxa 15.988.032 so‘mlik obuna tashkil etildi.

Axborot-resurs markazida yangi olingan adabiyotlarni foydalanuvchilarga tizimli ravishda targ‘ib etish maqsadida “**Diqqat! Yangi adabiyotlar!**”, “**Tanishing! Yangiliklar!**”, “**Ochiq eshiklar kuni**” mavzularida adabiyotlar ko‘rgazmalari tashkil etildi va ushbu adabiyotlardan professor-o‘qituvchilar, foydalanuvchilar muntazam ravishda samarali foydalanishmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri tomonidan 2022- yil 7- yanvarda tasdiqlangan qaror ijrosini amalga oshirish bo‘yicha yil yakuniga qadar barcha davlat oliy ta‘lim muassasalari kutubxona fondidagi o‘quv va ilmiy adabiyotlarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish hamda vazirlik huzurida yagona “Elektron kutubxona” platformasini ishga tushirishni ta‘minlash vazifalari ijrosini ta‘minlash maqsadida unilibrary.uz elektron platformasi yaratilgan bo‘lib, uning adabiyotlar bo‘limiga o‘quv adabiyotlarning bibliografik tasniflari va to‘liq matnlari kiritib borilmoqda. Jami 216999 dona adabiyotlar joylandi hamda import eksport qilindi.

A.Navoiy qalamiga mansub gʻazal va ruboiylardan oʻqidilar. Tadbir chin maʼnoda haqiqiy ijod kechasiga aylandi.

28-fevral kuni Axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan xassos shoira Zulfiyaxonim tavalludining 108 yilligiga bagʻishlab **“Zulfiyaxonim izdoshlarimiz”** mavzuida adabiy-badiiy kecha oʻtkazildi. Tadbir davomida Zulfiya Isroilova qalamiga mansub goʻzal sheʼrlar oʻqildi, bastalangan qoʻshiqlar kuylandi. Shoira Zulfiyaxonim va Xamid Olimjon hayoti sahnalashtirilgan kichik spektakl markaz xodimlari tomonidan mahorat bilan ijro etildi.

Axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan 2023- yil 7- mart kuni 8- mart –Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan **“Olam goʻzalligi senda mujassam”** mavzuida adabiy-badiiy kecha oʻtkazildi. Tadbir davomida ayollarni madh etuvchi goʻzal sheʼrlar oʻqildi, bastalangan qoʻshiqlar kuylandi va raqslar ijro etildi. Tadbir soʻngida barcha xodimlarga bayram sovgʻalari taqdim etildi.

17-mart kuni Axborot-resurs markazida Navroʻz bayramiga bagʻishlangan **“Navroʻz-mexr-muruvvat va saxovat bayrami”** deb nomlangan adabiy musiqiy tadbiri oʻtkazildi. Tadbirda soʻz olganlar qadimiy va navqiron Navroʻz bayrami yurtimiz boʻylab keng nishonlanishi, oʻzbek milliy urf –odatlarining naqadar goʻzalligi, dillarga faqat yaxshilik barq urishini taʼkidlab oʻtdilar.Markaz xodimlari tomonidan navbahorni tarannum etuvchi goʻzal sheʼr va qoʻshiqlari va sahna chiqishlari barchaga chinakam bahoriy kayfiyat ulashdi.

24-mart kuni Axborot-resurs markazi xodimlari, Yoshlar bilan ishlash va maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻlimi, institut tyutorlari tomonidan **Kitob mutolaasiga bagʻishlangan “Kitobxon talaba”** tanlovi oʻtkazildi. Tanlovda talabalar **A. Qodiriyning “Oʻtgan kunlar ”, P. Qodirovning “Yulduzli tunlar”, Oʻ. Xoshimovning “Ikki eshik orasi”** romanlarining xar biri boʻyicha tuzilgan 100 ta test savollariga hamda hakamlar tomonidan berilgan savollarga javob berdilar. Tanlov koʻtarinki kayfiyatda, baxs munozaraga boy oʻtdi.

Bundan tashqari, ARMda tashkil etilgan **“Ochiq eshiklar kuni”**da Andijon tibbiyot va pedagogika kolleji, Izboskan, Paxtaobod, Andijon, Qoʻrgʻontepa tumanlaridan kelgan oʻqituvchilar va 1894 nafar talaba va oʻquvchilar bilan axborot- resurs markaziga tashrif buyurib axborot-resurs markazidagi boʻlimlarning ish faoliyati bilan tanishdilar va oʻzlarining qiziqtirgan savollarga xodimlar tomonidan javoblar berildi.

20-aprel kuni Axborot-resurs markazida professor-oʻqituvchilar va talabalar oʻrtasida **“Arzonlashtirilgan kitoblar yarmarkasi”** boʻlib oʻtdi. Ushbu yarmarkada yangi olib kelingan adabiyotlar kitobxonlarda katta taʼssurot qoldirdi.

Institutga qarashli Marxamat tumanida joylashgan shaxobchada 22-aprel kuni Oʻzbekiston xalq shoiri Muxammad Yusuf tavallud kuniga bagʻishlangan **“El ardoqlagan shoir” mavzuida** tadbir boʻlib oʻtdi. Tadbirda shoir qalamiga mansub sheʼrlaridan oʻqituvchilar va oʻquvchilar va axborot-resurs markazi xodimlari tomonidan ijro etildi va shoirning uy muzeyiga sayoxat qilindi va shoirning xoki yotgan qabriston ziyorat qilinib, quron tilovat qilindi. Tadbir juda esda qolarli darajada qiziqarli oʻtdi.

Axborot-resurs markazida 2023- yil 24- aprel kuni xodimlar va talabalar ishtirokida 30 -aprel kuni boʻlib oʻtadigan yangilanayotgan Konstitutsiyamizning asosiy prinsip va normalari, yangi taxrirdagi moddalarning mazmun moxiyati haqida **Referendumda** aktiv ishtirok etish , ovoz berish boʻyicha davra suxbati boʻlib oʻtdi. Davra suxbatida axborot-resurs markazi direktor oʻrinbosari M.R.Qoʻldasheva, institut psixologi Oʻ.Arziqulovlar soʻzga chiqdilar.

19- may kuni institutning Kengashlar zalida Oʻzbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligining 32-yilligiga bagʻishlab oʻtkaziladigan **“Najot yoʻli”** maʼnaviy-maʼrifiy qoʻllanmasining taqdimot marosimi boʻlib oʻtdi. Taqdimotda yoshlar masalalari, maʼnaviy-maʼrifiy ishlar boʻyicha prorektor Sarvarbek Zaynobiddinovich Salaxiddinov, Oʻzbekiston Jurnalistlari uyushmasi viloyat boʻlimi raisi Maxpuraxon Mamadalievna Artiqova, nazorat va monitoring boʻlimi bosh mutaxassisi Ahmadali Qoʻldoshevlar soʻzga chiqishib **“Najot yoʻli”** maʼnaviy-maʼrifiy qoʻllanmasining mazmun –moxiyati,

odob-axloq, salomlashuv odobi, suxbatlashish madaniyati to'g'risida batafsil gapirib o'tdilar. Taqdimot juda savollarga boy va qiziqarli tarzda bo'lib o'tdi.

2023-yil 20-may kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining buyrug'iga binoan institutda axborot-resurs markazi faoliyatini rivojlantirish va xodimlar mehnatini munosib taqdirlash maqsadida 2023- yil 21-may "**Kutubxonachilar kuni**" munosabati bilan bayram tantanali ravishda axborot-resurs markazida bo'lib o'tdi. Tadbirda Raxbariyat tomonidan barcha xodimlar pul mukofoti va sovg'alar bilan taqdirlandilar.

ARMning 1-ilmiy o'quv zalida "**Kitob –insonning qalb g'axari, tafakkur xazinasidir**" mavzuida adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

1-sentabr – O'zbekiston Respublikasining Mustaqillik kuniga bag'ishlab "**Mustakillik eng avvalo xalq birligi va xamjixatligidir**" mavzuida adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi. Ko'rgazmaga 200 nomdan ortiq adabiyotlar qo'yildi.

2023- yil 4- sentabrdan- 10- sentabrgacha ARMda tashkil etilgan "**Ochiq eshiklar kuni**"da institutga kirgan barcha yo'nalishdagi 1- kurs talabalarini, Andijon pedagogika kollej o'qituvchi va talabalarini, Andijon shaxardagi umumta'lim maktablari o'quvchilari, Asaka, Paxtabod, Izboskan, , Andijon, Qo'rg'ontepa tumanlardagi tibbiyot kolleji o'qituvchi va talabalarini tashrif buyurib, axborot-resurs markazidagi bo'limlarning ish faoliyati bilan tanishdilar va o'zlarining qiziqtirgan savollarga xodimlar tomonidan javoblar berildi.

1-oktabr o'qituvchilar va murabbiylar kuni munosabati bilan ARMning 1-ilmiy o'quv zalida "**Mehri daryo – mehri qaynoq aziz ustozlar**" mavzusida tantanali bayram tadbiri o'tkazildi. Bayramona bezatilgan ARM binosida yosh xodimlar tomonidan tayyorlangan go'zal kuy qo'shiqlar va raqslar xammaga ko'tarinki kayfiyat ulashdi.

21-oktabr –Davlat tili to'g'risidagi qonun qabul qilingan kun munosabati bilan "**Til –millat ko'zgusi, ma'naviy boyligi**" mavzuida adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

8-noyabr Davlat bayrog'i qabul qilingan kun munosabati bilan "**Bayrog'im faxrim mening**" mavzusida adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil qilindi. 43 nus'hadagi adabiyotdan kitobxonlar foydalanildi.

1-dekabr – Xalkaro OITSGa qarshi kurashish kuni munosabati bilan «**OITS - asr vabosi**» mavzuida adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

3-dekabr – Xalkaro nogironlar kuniga bag'ishlab « **Mehr – yaxshilik va ezgulik bulog'i**» mavzuida adabiyotlar ko'rgazmasi tashkil etildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023- yil 16- noyabr kunidagi F-72 sonli farmoyishiga asosan "O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish" joylarda tashkilotlar, idoralar va o'quv maskanlarida keng nishonlash maqsadida 6- dekabr kuni ARMda barcha hodimlar, talabalar institut psixologi O'.Arzibekov va yurist konsultant R.Djalilovlar ishtirokida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 31 yilligi munosabati bilan "**Konstitutsiya – qonuniy manfaatlar kafolati!**"- deb nomlangan adabiyotlar ko'rgazmasi va davra suhbatlari o'tkazildi.

19-dekabr kuni Andijon davlat tibbiyot instituti ilmiy kengashlar zalida "**Yoshlar forumi**" doirasida "**Rektor va yoshlar**" uchrashuvi bo'lib o'tdi. Uchrashuv avvalida institut foyesida Axborot resurs markaziga keltirilgan yangi adabiyotlar taqdimoti va ko'plab yutuqlarga erishgan talabalarning "Muvaffaqiyat" ko'rgazmasi namoyish etildi.

21- dekabr kuni "**So'z - qalb g'ahari**" mavzusida ma'naviy- ma'rifiy tadbir o'tkazildi. Talabalar turar joyida yoshlarning ma'naviyatini yuksaltirish hamda bo'sh vaqtini mazmunli tashkil qilish maqsadida tadbir o'tkazildi. Tadbir institut psixologi O'.Arziqulov, Axborot resurs markazi bo'lim boshlig'i Y.Iminova, tarbiyachi-pedagog S.Tadjiboyeva va Magistratura bo'limi tyutori hamkorligida

tashkil qilindi. **“So‘z - qalb gavhari”** mavzusida o‘tkazilgan ma'naviy tadbirda Yozuvchilar uyushmasi a'zolari O.Meliboyev, A.Qosimov mehmon sifatida ishtirok etdi. Adabiyot kechasiga aylangan tadbirda talabalar Vatanga muhabbat, oilaga sadoqatini ifoda etuvchi she'rlar aytdi. Qiziqarli savol -javoblar o‘tkazildi. Munosib qatnashganlar esdalik sovg'alari bilan taqdirlandi.

Axborot-resurs markazining 1-ilmiy o‘quv zalida **“Kitob –insonning qalb gavxari, tafakkur xazinasidir”** mavzuida adabiyotlar ko‘rgazmasi tashkil etildi va talabalar ishtirokida davra suxbati o‘tkazildi.

Axborot-resurs markazida yangi olingan adabiyotlarni foydalanuvchilarga tizimli ravishda targ‘ib etish maqsadida **“Diqqat! Yangi adabiyotlar!”**, **”Tanishing! Yangiliklar!”** mavzularida adabiyotlar ko‘rgazmalari tashkil etildi va ushbu adabiyotlardan professor-o‘qituvchilar, foydalanuvchilar muntazam ravishda samarali foydalanishmoqda.

Axborot resurs markazi zamonaviy texnik jixozlar bilan ta'minlangan.

1. Kompyuterlar (Pentium IV), (Pentium III) – 55 dona
2. Skaner (NR 2400) – 2 dona
3. Printer 3x1 (MF 4410) - 1 dona
4. Skaner A3-(Scan Snap SV600) -1 dona
5. Printer (Canon LBP 2900) – 4 dona
6. Printer (Epson L-805)- 1 dona
7. Printer (Epson L-1800)- 1 dona
8. Epson L-15150-3x1- 1 dona
9. Epson M-200-3x1)- 1 dona
10. Canon MF-260-3x1- 1 dona
11. UniBook MINI HF-1 dona

**Axborot –resurs markazi
direktori**

M.S.Axmedova

**Andijon Davlat tibbiyot instituti axborot-resurs markazining
2023 yil faoliyat ko'rsatkichlari**

№	Ko'rsatkichlar nomi	2022 yil uchun yillik	2023 yil uchun yillik	O'sish sur'ati (% nisbatida)
I/AXBOROT – RESURS MARKAZI XIZMATI				
1.1	Foydalanuvchilar soni, ming kishi	14895	16179	1,2
2.2	Tashriflar soni, ming kishi	316033	322643	1,5
3.3	Kitob berilishi, ming birlik	721692	722891	1,2
4.4	Ma'lumot-axborot xizmati, ming birlik	593	971	1,2
5.5	Tashriflar soni, veb-sayt orqali ming kishi	-	-	-
6.6	Resurslarga rasmiy veb-sayt orqali tashriflar	-	-	-
7.7	Pullik xizmatlar(mln. so'm)	-	-	-
II. IJTIMOIIY-MADANIY TADBIRLAR				
8.1	Ekskursiyalar (soni/qatnashchilar)	32/846	76/1842	2,3
9.2	Yangi kelib tushgan adabiyotlar va muhim sanalar ko'rgazmalari	69	72	1,2
10.3	San'at asarlari ko'rgazmalari	2	4	1,2
11.4	Ommaviy tadbirlar	71	147	2,1
III. AXBOROT-KUTUBXONA FONDINING SHAKLLANISHI				
12.1	Fond ming saqlov birligi (elektron kitoblar bilan)	6966	3957	1
13.2	Bosma nashrlar	321/6645	67/3890	1
14.3	Elektron nashrlarga obuna	-	-	-
15.4	Elektron katalog, bibliografik yozuvlar ming birligi	3205	216999	3,9
16.5	Respublika yig'ma elektron katalog markaziga taqdim etilgan bibliografik yozuvlar soni <u>unilibrary.uz</u> elektron platformasi	55393	216999	3,9
17.6	To'liq matnli elektron nashrlar	55393	216999	3,5
IV. ME'YORIY-HUQUQIY ASOSLAR VA ILMIIY-USLUBIIY FAOLIYATNI RIVOJLANTIRISH				
18.1	Qonun loyihalari, hukumat qarorlari loyihalari	6	6	1
19.2	Nizomlar, yo'riqnomalar	1	1	1
20.3	Standart	2	2	2
V. XODIMLARNI QAYTA TAYYORLASH VA MALAKASINI OSHIRISH				
21.1	Konferensiya, seminarlar tashkil etish va uslubiy yordam ko'rsatish	34	34	1
22.2	Konferensiya, seminar-treninglarda ishtirok etish	16	18	2
23.3	AKT malakasini oshirish	-	-	-
VI. XALQARO HAMKORLIK				
24.1	Kelishuvlar (loyihalar)	-	-	-
25.2	Hamkorlikdagi tadbirlar	-	-	-

**Axborot-resurs markazi
direktori**

M.S. Axmedova